



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING TA'LIM-TARBIYA OLISHLARI

Xudayberdiyeva Nodira Ilxamovna

Xorazm viloyat Gurlan tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi

bosh mutaxassis psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16901055>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Avgust 2025 yil

Ma'qullandi: 15- Avgust 2025 yil

Nashr qilindi: 19- Avgust 2025 yil

KEYWORDS

oila, maktab, hamkorlik, inklyuziya, jamiyat, imkoniyat, g'amxo'rlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yurtimizda istiqomad qiluvchi imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim muassasaga moslashishi, ta'lim olishi, imkoniyatlaridan to'la qonli foydalanishida ta'lim muassasaning roli haqida haqida so'z boradi.

Inklyuziv ta'lim vazifalari: ta'lim muassasasida ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zarur psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilari ta'lim tashkilotlari bilan uyg'unlashtirgan holda faoliyat olib borish yo'li bilan o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, bolaning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish; jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir.

Maktab ta'lim tashkilotiga imkoniyati cheklangan bola keldi, uni guruh muhitiga moslashtirish – o'qituvchi uchun juda muhim va murakkab ish. Bunda o'qituvchi, albatta, psixolog bilan hamkorlikda bolaning aynan nimadan bola qiynaladi va u nimalarga qiziqadi shularni kuzatish orqali bilib olishi kerak. Bunda ota-ona hamkorligi ham o'qituvchi va psixolog hamkorligiga birlashgan holatda bo'ladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim muassasasi va sog'lom bolalar bilan moslashishi, sog'lom bolalarning imkoniyati cheklangan bolalarni qabul qilish jarayoni o'qituvchi, psixolog va ota onalarning hamkorlikdagi jarayoniga bog'liq.

Hozirgi trening dastur psixologlarimiz uchun yordamchi qo'llanma sifatida ishlab chiqilgan bo'lib ish faoliyatlarida foydalanishlari mumkun.

Mashg'ulotning maqsadi: Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishlari uchun imkoniyatlar yaratish va ularning yangi muhitga moslashuvini yengillashtirish, ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash, tengdoshlari bilan ijobiy munosabat o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirish.

Vazifalar:

- ta'lim muassasasini xavfsiz va do'stona joy sifatida qabul qilishga yordam berish;
- tengqurlari bilan munosabatga kirishish, fikrini erkin ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirish;

- tengdoshlar orasida do'stlik va o'zaro yordam qadriyatlarini rivojlantirish;

Davomiyligi: 1 soat 30 daqiqa Reja:

No	Trening mazmuni	Davomiyligi	O'quv vositalari	Mashq maqsadi
1-sessiya. Kirish qismi				
1.	Maruza	15 daq.	Monitor	Imkoniyati cheklangan bollar psixologiyasi
2.	"Maktab – mening do'stlarim uyi"	25 daq.	4-A formatdagi qog'oz va rangli qalamlar	Yangi muhitga moslashishda ijobiy hissiyotlarni kuchaytirish.
3.	"Biz bir jamoamiz "	25 daq.	Qurilish kublari	Guruhga tegishlilik hissini shakllantirish..
4.	"Agar men xafa bo'lsam..."	15 daq.	Stol va stul	Bolalar o'z va boshqalarning hissiyotlarini yaxshiroq tushunadi.
Xulosa qismi				
5.	Qayta aloqa "Qarsaklar" mashqi	Barcha ishtirokchilarga qog'oz-ruchka, flipp-chart.	Kunning sarhisobini qilish	Qayta aloqa "Qarsaklar" mashqi
Jami: 1 soat 30 daq.				

Trening borishi.

1. Kirish qismi: Maruza.

Imkoniyati cheklangan bolalarning (jismoniy, eshitish, ko'rish, nutq, intellektual yoki ruhiy rivojlanishida muammolari bor bolalar) ko'plab holalarda o'zini boshqalardan "kamroq" deb his qilishi, o'zini past baholash holatlari kuzatiladi. Emotsional holatida noroziklik – tez ranjish, boshqalar so'zlariga ortiqcha ta'sirchan bo'ladi, ayrim hollarda sinfdoshlarining qabul qilmasligi tufayli yolg'izlik hissi kuchli bo'ladi, qiyinchiliklar sababli o'qishga qiziqish tez pasayishi,

darslarda qiynalish, tengdoshlarning kulishi yoki ortiqcha e'tibor markazida qolish qo'rquvi bo'lishi mumkin.

Maktabda o'zini tutishi o'qituvchining savollariga kam javob berish, faollikdan chetda qolish, doimiy tarzda o'qituvchi yoki sinfdoshlardan yordam so'rash, ayrim bolalar o'zini himoya qilish maqsadida keskin javob qaytarishi yoki injiqlik ko'rsatishi mumkin. Sinfdan do'st topishda yoki jamoaviy ishlarda faol bo'la olmaslik, ba'zida o'qishga befarqlik, darsni buzish, yig'lash yoki o'zini tortib olish holatlari kuzatiladi.

O'qituvchi va psixologlar uchun tavsiyalar

Bolaning kuchli tomonlarini ko'rsatish – maqtash, kichik yutuqlarini qadrlash.

Individual yondashuv – dars jarayonida qo'shimcha tushuntirish, oddiyroq topshiriqlar.

Integratsiya – sinfdoshlarini hamkorlikka jalb qilish, birga o'yin va mashg'ulotlar tashkil qilish.

Psixologik qo'llab-quvvatlash – qo'rquv va stressni kamaytirish uchun art-terapiya, suhbatlar, ijobiy mashqlardan foydalanish

Oilaviy hamkorlik – ota-onalar bilan birgalikda bolaning o'zini baholashini ko'tarish.

2. **“Maktab – mening do'stlarim uyi”** mashqi

Maqsad: Yangi muhitga moslashishda ijobiy hissiyotlarni kuchaytirish. Usul: Aylana shaklida suhbat va rasm terapiyasi

Bosqichlar:

Isinish o'yini: “Ism va tabassum” – har bir bola o'z ismini aytadi va yonidagi bolaga tabassum qiladi.

Suhbat: “Maktabda menga yoqadigan 3 narsa” – bolalar navbat bilan aytadilar.

Amaliy mashq: “Mening maktabim” – bolalar guruhlariga bo'linib qog'ozda o'z maktabini rasmga chizadilar. (bolalar bir biriga yordam beradilar, trener kuzatuvchi va yordami jarayonida)

Muhokama: Bolalar o'z rasmlarini tushuntirishadi.

Natija: Bolalar birgalikda ijobiy assotsiatsiya hosil qiladi.

3. **“Biz bir jamoamiz”** mashqi

Maqsad: Guruhga tegishlilik hissinii shakllantirish.

Asosiy o'yin: “Birgalikda quramiz” – bolalar qurilish kublaridan birgalikda “maktab” maketini yasaydilar.

Muhokama: “Birgalikda qilgan ishimizda men nimaga hissa qo'shdim?”

Natija: Hamkorlik ko'nikmalari va o'zini foydali his qilish.

4. **“Agar men xafa bo'lsam...”** mashqi.

Maqsad: Bolalarda o'z hislarini tanib, ifoda etish ko'nikmasini rivojlantirish.

Natija: Bolalar o'zi va boshqalarning hissiyotlarini yaxshiroq tushunadi.

5. **“Qarsaklar”** mashqi.

Maqsad: aks ettirish, ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini olish.

Trener: Biz bugungi kunda yaxshi ishladik va sizga bunday o'yinni taklif qilmoqchiman. Birinchidan, men asta-sekin qarsak jadalligini oshirib, yonimga sherik qo'shaman. U ham kimnidir tanlaydi. Shu tarzda qarsakni to'xtatmay oxirgi ishtirokchiga hamma qarsak chaladi. O'tkazilgan mashg'ulotlar muhokama qilinadi. Bolalar o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar. Qaysi mashqlarni eng ko'p yoqtirganligi va nima uchun? Ular o'zlari yoki guruhning boshqa a'zolari haqida qanday yangi narsalarni bilib oldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Карнеги Д. Как завоевывать друзей и оказывать влияние на людей. — М.: Эксмо, 2021. — 320 с.
2. Абдукаримов М. Психология: O'quv qo'llanma. — Т.: "Iqtisod-moliya", 2020. — 288 б.
3. Yusupova D. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. — Т.: "Fan va texnologiya", 2021. — 215 b.
4. Thomas K.W. Conflict and conflict management. In: The Handbook of Industrial and Organizational Psychology. — Chicago: Rand McNally, 1976. — P. 889-935.
5. Мирзаева З.Қ. Ijtimoiy psixologiya asoslari. — Т.: O'zbekiston, 2019. — 260 б.
6. Mayer B. The Dynamics of Conflict Resolution: A Practitioner's Guide. — San Francisco: Jossey-Bass, 2012. — 384 p.
7. G'aniyeva N. Shaxs psixologiyasi. — Т.: TDPU, 2018. — 198 b.

